

## TARIX DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNI SAMARALI YO‘LLARI.

*Raximova Dilnoza Maxmudjonovna*

*Namangan viloyati Pop tuman*

*MMTBga qarashli 10- idum*

*Tarix va huquq fani o‘qituvchisi.*

*+99891 177 78 55*

*E-mail adres [dilnozarahimova@gmail.com](mailto:dilnozarahimova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada biz ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg'or tajribalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tarix fanini o'qitish jarayonida zamonaviy innovatsion-pedagogik texnologiya usullarini qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishi, mavzularni tez va oson tushunishga ko'maklashadigan pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktab, o'quvchi, tarix, qiziqarli o'yinli, mavzuga zamin, xulosa-daraxt hosilida.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются лучшие практики, педагогические технологии и интерактивные методы, которые служат повышению эффективности образовательной системы. Также в результате использования современных инновационных педагогических технологий в процессе преподавания истории учащиеся получают возможность самостоятельно мыслить, анализировать, делать выводы, выражать свое мнение, аргументированно отстаивать его, здоровое общение, обсуждение, дискуссию. формируются и развиваются навыки, использование современных педагогических технологий расширяет сферу мышления ученика, обсуждаются педагогические технологии, которые помогают быстро и легко понять обсуждаемые темы.

**Ключевые слова:** школа, ученик, история, интересная игра, предыстория темы, дерево выводов.

**Abstract:** This article discusses best practices, pedagogical technologies, and interactive methods that serve to increase the efficiency of the educational system. Also, as a result of the use of modern innovative pedagogical technology methods in the process of teaching history, students are able to think independently, analyze, draw conclusions, express their opinion, defend it based on reasons, healthy communication,

discussion. , discussion skills are formed and developed, the use of modern pedagogical technologies expands the scope of the student's thinking, pedagogical technologies that help to quickly and easily understand the topics are discussed.

**Key words:** school, student, history, interesting game, background to the topic, conclusion-tree.

### **Kirish.**

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimini tashkil etishda rolli o'yinlar va interfaol usullardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallagan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli o'yinlar, interfaol usullar o'ziga xos o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilgan.

O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oraliqini qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda tarix darslarida qo'llaniladigan o'yinlar hamda interfaol usullardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni jamiyat rivojini yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o'tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko'ra bilishdek muhim vazifani hal qiladi. "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur"- deya ta'kidlagan edi Shavkat Mirziyoyev.<sup>1</sup>

### **Mavzuga oid adbiyotlar tahlili**

Interfaol- o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslublari-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan

<sup>1</sup> Sh. Mirziyoyevning Islom svilizatsiyasi markaziga tashrifi chogidagi nutqidan.

narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maktabda tarix darslarini tashkil etishda "Fikrlarning tarmoqlanishi", "BBB", "FSMU", "VENN diagrammasi", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Raqmlar so'zlaganda", "Baliq skeleti", "Yelpig'ich", "Bumerang", "Zakovat", "Ha yoki yo'q", "Zinama-zina", "Sinkveyn", "SWOT" tahlili kabi innovatsion, noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish mumkindir, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bunday o'yinlar mavzularni o'quvchilarga oson va tushunarli berishning yo'llaridan biri hisoblanib, o'qituvchi yangi-yangi ta'limiy o'yinlarni darslarida qo'llashi, hatto o'zi ham shunday o'yinlarni o'ylab topishi mumkin bo'ladi.

### **Tahlil va natijalar**

Biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz. Avvalo dars boshlashdan oldin o'quvchilar sonidan kelib chiqib, ikki yoki uch guruhga ajratiladi. Guruhlar tarix fanidan kelib chiqib, "Temuriylar", "Boburiylar" deb nomlanadi. "Kun yangiliklari"ni o'tkazish orqali yurtimizda bo'layotgan voqea va hodisalar haqida axborot tinglanadi. Tarix fanida o'tilgan mavzu asosida "Klaster" (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash asosi sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.<sup>2</sup>

O'quvchilar bilan yakka tartibda uy vazifasini bajargan yoki bajarmaganligini bilish uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda aniqlik kiritish mumkindir. Yana "Aqliy hujum" metodidan ba'zi sabablarga ko'ra darsga kech kelgan o'quvchilar bilimini tekshirish va ularni boshqa kech qolmasligini ta'minlash uchun ham qo'llashni tavsiya qilgan bo'lar edim. "Aqliy hujum" metodi uchun savollar: Tarix fani nimalarni o'rgatadi?, O'zbek tarixining buyuk siymolarini sanab bering, Tarix fanining maqsad va vazifalari qanday? O'quvchilar bilan tez-tez savol-javob o'tkazish bilim doirasini kengaytiradi. Savollarni bilmagan o'quvchilarni jazolash ya'ni raqsga tushish, qo'shiq

<sup>2</sup> Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T.,1996

va she'r yoki sanalarni yoddan aytish orqali ham bilim olishga intilishlarga sabab bo'ladi.

“Venn diagrammasi” usulida o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sentezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 3 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Avval ikkala mavzu haqida ma'lumot yoziladi. So'ng ularning o'xshash tomonlari yo'ziladi va ikkita mavzu haqidagi ma'lumotlar mustahkamlanadi. Bu usul ko'nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'ngi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin. Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga o'zi zamin yaratishdan boshlash kerakdir. O'qituvchidan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida, hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan innovatsion pedagogik texnologiya metodlarini to'g'ri tanlashtalab etiladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash darsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. Mirziyoyevning Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrifi chogidagi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 yil.
3. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогических технологий. - М: 1989. - 192 с.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008
6. M.Ochilov "Yangi pedagogik texnologiyalar". Qarshi, 2000.
7. S.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" T.:
8. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma / "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.
9. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lim sifat kafolati" -T.:2008 .
10. Ochilov E., —Barhayot siymolar.Toshkent . —O'zbekiston 2012-yil.